

**SUD TIBBIYOTI AMALIYOTIDA BAXSLI OTALIK VA ONALIK XOLATLARINI
ANIQLASHNING DERMATOGLIFIK ALGORITMI****Kuryazov A.K.****Yusupov M.A.****Yusupova D.M.****Ilxomova M.M.**

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14759534>

Dolzarbliji. Qo‘l barmoqlarining dermatoglifik ko‘rsatkichlari asosida yaqin qarindoshlikni aniqlashni sud-tibbiy mezonlarini o‘rganish sud-tibbiyot amaliyotida qarindoshlik aloqalarini aniqlashning to‘gri va oson usullarini takomillashtirish zarurati bilan bog‘liq. Jahon amaliyotida genetik tahlillarga asoslangan usullar katta moliyaviy va vaqt xarajatlarini talab qiladi, shuning uchun genetik testlar imkonsiz yoki maqsadga muvofiq bo‘lmagan hollarda yordamchi yoki mustaqil usul sifatida ishlatilishi mumkin bo‘lgan dermatoglifika kabi qo‘sishimcha yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi (Smith J., 2020). AQSH va Yevropada dermatoglifika bir necha o‘n yillar davomida o‘rganilib kelmoqda va qo‘l barmoqlaridagi naqshlar va genetik markerlar o‘rtasidagi korrelyasion bog‘liqlikni tasdiqllovchi katta hajmdagi ma’lumotlar to‘plangan, bu o‘z navbatida oilaviy munosabatlarni o‘rnatish uchun ishlatilishi mumkin (Johnson M., 2019). Ushbu usul sud tibbiyotida shaxs identifikasiysi va irsiy kasalliklarni aniqlash uchun qo‘llaniladi, bu esa uni sud ekspertizasi sohasida istiqbolli qiladi (Allemann Y. et al., 2018).

Muammoning o‘rganilganligi: Rossiyada qarindoshlikni aniqlash usullari *T. D. Gladkova* (1964), *I. S. Guseva* (1986) tomonidan taqdim etilgan. Qarindoshlik ekspertizalarida va shaxsiy identifikasiyani tekshirishda dyermatoglifik naqshlar kongressdan 60 yil o‘tgach, tez sur’atlar bilan qo‘llanila boshlandi. Qarindoshlikni aniqlashning uch bosqichli usuli *V.N.Zvyagin* va *I.B. Tarasov* (1989) tomonidan ishlab chiqilgan. *A. P. Bojchenko* (2000), *O. M. Fandeyeva* (2002), *L. Yu. Shpak* (2003) va boshqalarning keyingi tadqiqotlari sud tibbiyotida dermatoglifik usuldan foydalanishni sezilarli darajada kengaytirdi. Sud-tibbiyot amaliyoti faol rivojlanayotgan O‘zbekistonda dermatoglifik ko‘rsatkichlar, ayniqsa, irsiy kasalliklar yoki ommaviy ofatlarda yoki sud-tergov jarayonlarida shaxsning identifikasiysi bilan bog‘liq holatlarda oilaviy munosabatlarni o‘rnatish masalalarini hal etishda muhim vositaga aylanishi mumkin (Abduraimov I.R., 2020). O‘zbekistonda dermatoglifikaga asoslangan sud-tibbiyot mezonlarini ishlab chiqish qarindoshlik munosabatlarini o‘rnatish jarayonlarini sezilarli darajada soddalashtirishi mumkin, bu esa tadqiqot mavzusiga ham ilmiy, ham amaliy jihatdan yuqori dolzarblik beradi.

Tadqiqotning maqsadi: o‘zbek populyasiyada qarindoshlikni aniqlash va shaxsiyatni identifikasiya qilishda sud-tibbiy ekspertiza o‘tkazish uchun barmoqlar distal falangalarining dermatoglifik belgilaridan foydalanish samaradorligini baholash.

Tadqiqotning vazifalari:

irsiyat bilan bog‘liq bo‘lgan xarakterli belgilarni aniqlash uchun o‘zbek populyatsiyasida oilaviy tripletlar (ota-on-a-farzand) va soxta tripletlarda barmoqlar distal falangalarining dermatoglifik belgilarini qiyosiy tahlil qilish;

qo‘l barmoqlari distal falangalaridagi naqsh markazidagi chiziqlar oqimining yo‘nalishi asosida etnik guruxlarda irsiyat bilan bog‘liq tarzdagi qarindoshlikni belgilovchi belgilarni o‘rganish;

ota-onalar va ularning bo‘lajak farzandi o‘rtasidagi qarindoshlikni tasdiqlash yoki rad etish uchun naqsh turi, naqsh balandligi, del’talar soni va chiziqlar oqimi shaklini o‘z ichiga olgan dermatoglifik belgilar bo‘yicha identifikasiyalash tartibini ishlab chiqish va aprobatasiyadan o‘tkazish;

Tadqiqotning obyekti: o‘zbek populyasiyasi orasida konstitutsiyaviy irqi, jinsi va yoshi hamda antropometrik ma’lumotlardan tashqari, 5 yoshdan 70 yoshgacha bo‘lgan 450 nafar ko‘ngilli erkak va ayoldan barmoqlarning distal falangalari dermatoglifik ko‘rsatkichlarining tahliliy natijalari olindi.

Tadqiqotning umumiyl algoritmi bir necha bosqichdan iborat:

- hujjatlarni tekshirish, pasport va shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjatlarni qayd etish, jumladan, antropometrik ma’lumotlari hamda maxsus tekshirish ma’lumotlari;
- biometrik skaner yordamida barmoqlar distal falangasi naqsh tasvirini olish;
- ma’lumotlarni elektron bazaga kiritish va oila tripletlarini kodlash;
- barmoq andozalari tasvirini elektron bazasiga joylash;
- dermatoglifik alomatlarni kodlash;
- olingan natijalarni avtomatik tarzda tahlil qilish;

Barmoq naqshlarining dermatoglifik terminologiyasi

Tadqiqot jarayonida dermatoglifik umum qabul qilingan terminlardan foydalanildi:

- *papillyar naqsh* – ma’lum bir rasmni tashkil qiladigan papillyar chiziqlar guruhi;
- *ulnar (fibulyar) oriyentatsiya* – beshinchi barmoq tomoniga yo‘nalishi;
- *tibial (radial) oriyentatsiya* – birinchi barmoq tomoniga yo‘nalishi;
- *distal oriyentatsiya* – barmoqlar uchlari tomoniga yo‘nalish;
- *proksimal oriyentatsiya* – unga teskari yo‘nalish;
- *delta (uchradius)* – uchta turli yo‘nalishdagi papillyar chiziqlar tizimining kesishgan joyi;
- *delta radiantlari* – uchradiusdan boshlanadigan va tojsimon qirralarning uchta oqimini bir-biridan chegaralab turadigan teri tojsimon qirralari;

– *naqsh maydoni* – delta radiantlari yoki deltaga yaqin joylashgan chekka tojsimon qirralar bilan chegaralangan barmoq naqshining markaziy qismi;

– *naqsh markazi* – barmoq naqshi ichidagi eng markaziy nuqta;

– *lokal (barmoqqa oid) deltali sanoq* – qo‘lning bitta barmog‘idagi deltalar soni;

– *barmoqlarning umumiy delta sanog‘i (UDS)* – qo‘l barmoqlaridagi barcha deltalar soni.

Barmoq naqshlarining sifatiy alomatlari ko‘rinshining baholanishi (1-jadvalga qarang) quyidagi ko‘rinishda bo‘ldi.

1-jadval

Barmoq naqshlarini sifatiy alomatlari

Naqsh turi	Balandligi	Naqsh markazida chiziqlar oqimining shakli
ravoq;	past;	oddiy (parallel, aylana
halqa;	o‘rta;	spiral (uyurmali);
gajak;	baland;	T- simon;
murakkab naqsh;		

Barmoq naqshlari ko‘rinshining miqdoriy alomatlari ko‘rinishi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Barmoq naqshlarining miqdoriy alomatlari

Delta sanog‘i
lokal (bitta barmoqda); o‘ng (chap) qo‘l barmoqlarining delta sanog‘i; umumiy delta sanog‘i (qo‘llar barmoqlari)

Matematik usullari: populyatsiya va oilaviy guruhlarda qo‘l barmoqlaridagi alomatlarning umumiy va alohida taqsimlanish xususiyatlarini aniqladik. Ma’lumotlarning tavsifiga statistik ishlov berildi. Erishilgan natijalarning ahamiyatligi mayjud ko‘rsatkichlar farqini ikkiga ko‘paytirilgan o‘rtacha xatolikni solishtirish yo‘li bilan aniqlandi. Bunda alomatlarning har ikkala guruhi bitta populatsiyadan olinganligi ham inobatga olindi.

Fargning o‘rtacha xatosi quyidagi formula bo‘yicha aniqlandi:

$$\sqrt{(pq : n_1) + (pq : n_2)} (A. Belford Xill, 1958),$$

p – tanlab olingan dermatoglifik alomatning foizli ko‘rsatkichi, q – teskari ko‘rsatkich, n_1 va n_2 – har bir guruhda kuzatuvlar soni.

Ota-onha va bola o‘rtasidagi qarindoshlik *Orczykowska-Światkowska Z., Krajewska A.* tomonidan taqdim etilgan dermatoglifik o‘xshashlik indeksini aniqlash usulini modifikatsiyalashtirib so’ngra – *ISD* baholandi:

$$ISD = 2 \sum_i \log_{ci}^{\frac{1}{ci}} - 2 \sum_i \log Ci,$$

Ci – populyatsiyada alomatlarning uchrab turish chastotasi;

$2\log \frac{1}{C_i}$ – ota-onada farzandlar o‘rtasidagi o‘xshashlik alomatlari (musbat qiymatga ega);

$2 \log C_i$ – ota-onada farzandlar o‘rtasidagi o‘xshashlik alomatlari (manfiy qiymatga ega);

ISD – ota-onada bolaning fenotipik o‘xshashligi va dermatoglifik alomatlarning farqlanishining jami.

Alomatning ma’lumotlilik ahamiyati uning populyatsiyada uchrab turuvchanlik chasteotasiga bog‘liq (3-jadvalga qarang):

3-jadval

Alomatning uchrab turuvchanlik chasteotasi va uning miqdoriy qiymati

Uchrab turuvchanlik chasteotasi, %	O‘zining bolasi	Begona bola
	$2\log \frac{1}{C_i}$	$2\log C_i$
<0,5	6	1
0,5-1,7	5	2
1,8-6,1	4	3
6,2-20,1	3	4
20,1-68,0	2	5
>68,0	1	6

ISD qo‘llar barmoqlarining barcha 40 alomatlari ko‘rsatkichlari bo‘yicha hisoblab chiqildi.

Solishtirish algoritmi ishonchli hisoblanib qo‘yilgan masalalarni hal qilish uchun maxsus ishlab chiqildi.

Olingan natijalar.

Qo‘llar barmoqlarining distal falangalaridagi dermatoglifik alomatlarning taqsimlanishi 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Qo‘llar barmoqlarida naqshlar turlarining foizlarda taqsimlanishi

Na qs h	O‘ng qo‘l						Chap qo‘l					
	I	II	III	IV	V	O‘rt	I	II	III	IV	V	O‘rt
Lu	18,87	11,73	24,68	15,68	29,05	100,0	19,56	12,34	22,37	18,26	27,47	100,0
Lr	0,00	83,94	9,87	4,95	1,22	100,0	0,00	76,84	10,97	7,33	4,89	100,0
W	28,28	20,17	11,05	31,88	8,63	100,0	22,41	24,43	15,06	29,34	8,77	100,0
A	,42	6,50	0,22	0,09	,76	00,0	3,21	0,52	7,26	1,56	,45	00,0

L	15,07	30,18	15,08	20,76	18,88	100,0	45,22	21,91	10,95	5,08	6,86	100,0
W												

Kutilganidek, turli qo'llar barmoqlarda dermatoglifik alomatlar yetarlicha notekis taqsimlangan. Qo'llarning alohida barmoqlarida naqsh turlarining taqsimlanishi 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Qo'llarning alohida barmoqlarida naqsh turlarining taqsimlanishi, %

Naqsh	O'ng qo'l						Chap qo'l						O'rt.
	I	II	III	IV	V	O'rt	I	II	III	IV	V	O'rt	
Lu	52,74	33,01	9,24	44,01	81,51	56,09	60,26	38,01	69,01	56,24	84,74	61,86	58,87
Lr	0,00	17,01	2,01	1,01	0,23	4,06	0,00	15,76	2,26	1,51	1,00	4,09	4,07
W	43,51	31,01	17,00	49,10	13,24	30,74	27,51	30,00	18,51	36,00	10,76	24,54	27,64
A	1,76	15,00	9,74	3,26	2,49	6,44	4,00	12,24	8,24	3,52	2,24	6,06	6,24
LW	2,09	4,08	2,00	2,73	2,51	2,64	8,24	4,00	2,00	2,76	1,24	3,64	3,16
Σ	100,0						100,0						100,0

Naqsh turlarining chapdagiga nisbatan o'ng qo'llarda o'rtacha statistik taqsimlanishini taxminan simmetrik deb hisoblash mumkin, chunki olingan qiymatlar o'zaro bir-biriga juda yaqin, o'ndan va yuzdan bir foizgagina farq qiladi. Maksimal farq gajaklar uchun aniqlangan bo'lib, 3,1 % ni tashkil qildi.

O'ng va chap qo'llarning bir xil nomdagi barmoqlarida past va o'rtacha balandlikdagi naqshlar, baland naqshlarga nisbatan naqshlarning turlari bo'yich solishtirilganda simmetrikligi yuqoriligi namoyon qildi (6-jadvalga qarang).

6-jadval

O'ng va chap qo'llarning har bir barmoqlarida dermatoglifik naqshlar balandligini taqsimlanishi, %

Ba-land-lik	O'ng qo'l						Chap qo'l						O'r-tacha
	I	II	III	IV	V	O'rt	I	II	III	IV	V	O'rt	
Past	53,24	25,26	18,00	10,74	34,01	28,24	47,51	18,51	10,49	8,76	26,00	22,24	25,24
O'rt.	46,74	72,01	74,51	79,24	63,76	67,24	52,24	77,51	83,74	82,76	72,00	73,64	70,46
Bal.	0,00	2,74	7,51	10,00	2,26	4,51	0,23	4,00	5,74	8,51	2,00	4,11	4,32

Σ	100,00	100,00	100,00
---	--------	--------	--------

Qon-qarindoshlikni aniqlash algoritmi: Qo'llar barmoqlarini kompleksli tekshirishdan alohida-alohida tekshirishdan ko'ra ko'proq ma'lumot olinadi. Ammo, qo'llar barmoqlari izlarini birgalikda tekshirishning har doim ham imkon bo'lavermaydi. Taxmin qilinayotgan qarindoshlarning qo'llari barmoqlarining izlarini 4 dermatoglifik alomatlar kompleksi bo'yicha ham alohida, ham birgalikda tekshirishga imkon beradigan, qon-qarindoshlikni aniqlash uchun algoritm ishlab chiqildi Algoritmning mohiyati quyidagilardan iborat. "Ota", "ona" va "bola" guruhidagi taxmin qilinayotgan qarindoshlarning pasport va boshqa ma'lumotlari qayd qilinadi, barmoqlaridan izlar olinib va dermatoglifik alomatlari belgilangandan so'ng kerakli triplet shakllantiriladi, ISD kattaligi va ota-onada va bola o'rtaсидаги qon-qarindoshlik ehtimolligi haqidagi xulosa aniqlanadi.

XULOSALAR

1. Ishlab chiqilgan usul ilk marotaba o'zbek populyasiyalariga mansub ko'ngilli 106 oila guruhlarining va 50 ta soxta tripletlarning "Dermatoglifik o'xshashlik indeksi"ga (ISD) asosan qo'l barmoqlari distal falangalaridagi dermatoglifik andozalar bo'yicha ota-onada va ularning taxmin qilinayotgan bolasi o'rtaсида qon-qarindoshlik bor yoki yo'qligini aniqlash imkonini beradi.

2. Qo'l barmoqlari distal falangalaridagi dermatoglifik o'xshashlik indeksi (ISD) asosida qon-qarindoshlikni tasdiqlash yoki uni inkor qilish uchun qo'l barmoqlari distal falangalardagi naqsh turi, naqsh balandligi, naqsh markazidagi chiziqlar oqimi turining shakllanishi, bolaning qo'l barmoqlari distal falangalaridagi deltalar soni ota-onasining gomologik barmoqlaridagi dermatoglifik alomatlarning kombinatsiyasiga bog'liqligi va nasldan naslga o'tishi ilmiy jihatdan isbotlandi. Olingan natijalar baxsli otalik ekspertizalarida va shaxs identifikasiysi bilan bog'liq bo'lgan murakkab ekspertizalarda sud tibbiy ekspertiza xulosalarini sifatini, ishonchlilagini, asosligini va ekspertiza o'tkazish muddatini qisqartirishga, qo'shimcha va takroriy ekspertizalar o'tkazish zaruriyatini kamaytirishga imkon beradi.

3. Qo'l barmoqlari dermatoglifik tahlili asosida "FM" dasturi mavzusidagi EHM dasturi ishchi platforma ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Ushbu dastur ta'minoti baxsli otalik va onalik muammolari bilan bog'liq o'tkaziladigan ekspertizalarda sud tibbiy ekspertiza sifatini oshirishga yordam beradi.

REFERENCES

- Фандеева О.М. Комбинации типов узоров дерматоглифических характеристик пальцев ног. Теория и практика судебной медицины.: тр. Петербургского науч, об-ва судебных медиков. – СПб, 2001. – Вып. 5.-С.118-120.

2. Фандеева О.М. Сравнительные характеристики различных типов узоров и их частные особенности на пальцах рук и ног. Теория и практика судебной медицины.: тр. Петербургского науч, об-ва судебных медиков.- СПб, 2001. – Вып. 5.-С. 120-122.
3. Фандеев О.М. Изучение дерматоглифических признаков ног как характеристик генетического родства применительно к судебно-медицинским идентификационным экспертизам: Автореф. дис. ... к.м.н. – М., 2002.-19 с.
4. Фандеева О.М. Дерматоглифика в экспертных родства и в идентификационных исследованиях. Состояние перспективы, прогнозы. Альманах судебной медицины. – СПб, 2003. -№ 5. – 17-24.
5. Фандеева О.М. Дерматоглифические признаки ладоней и подошв человека. Ученые записки Санкт- Петербургского государственного медицинского университета им. акад. И.П. Павлова. – т. X, № 3. – С. 48-52.
6. Фандеева О.М. Дерматоглифика в антропологии, физиологии, медицине, криминалистике. Biomedical and Biosocial Anthropology. - Винница, 2004. - № 2. - С. 262-269.
7. Фандеева О.М. Новые признаки в дерматоглифике. Морфология. – 2004. – т. 126, № 4. – С.127.
8. Фандеева О.М. Новое в дерматоглифическом методе. Морфологические ведомости. – 2004. - № 1-2.-С. 108.
9. Хамроева Ф.А. Дерматоглифика при ювенильном сахарном диабете. Педиатрия. – 1985. - № 2.- С. 12-15.
10. Чистикин А.Н. Пальцевая дерматоглифика у лиц, находящихся в местах лишения свободы. Сб. науч, трудов. – Тюмень, 1993. – Ч.III. – С. 82-84.
11. Чистикин А.Н. Применение дерматоглифики в медицине и криминалистике: научно-методическое пособие. Тюмень, 1994. – 28 с.
12. Чистикин А.Н. Дерматоглифические термины и их анатомическая трактовка. Рос. Морфол. Ведомости. – 1996. - № 2. – С. 154-169.
13. Шпак Л.Ю. Папиллярные узоры средних и основных фаланг кисти в близнецовых и посемейных исследованиях. Науч, альманах кафедры антропологии МГУ. Выпуск 1. – М.: Путь, 2001. – С. 99-111.
14. Яровенко В.В. Дерматоглифика в криминалистике и судебной медицине. - Тюмень, 1995. - 280 с.
15. Яровенко В.В. Проблема применения дерматоглифических исследований в криминалистике: Автореферат дис. ... д-ра юрид. наук. - Екатеринбург, 1996. - 24 с.

16. Тарасов И.Б. судебно-медицинские критерии внутрисемейного сходства по признакам дерматоглифики стоп: Автореф. дис. ... к.м.н. – М., 1992. – 19 с.
17. Томилин В.В. К вопросу о состоянии проблемы идентификации трупов при катастрофах. Симп. по проблеме идентификации личности. СПб., 1996. -С. 23-25.
18. Юлдашев Б.С., Юсупов М.А., Кузиев О.Ж. Қўл бармоқлари дерматоглифик таҳлили асосида баҳсли оталикни аниқлашни “FM” дастури. Интеллектуал мулк агентлиги дастурий гувохнома DGU 2021 № 0284. 2021 йил. Тошкент.